

Issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘ini qaytarib olish bo‘yicha QO‘LLANMA

2023-yil 1-iyuldan 2024-yil 1-iyulgacha issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlar tomonidan ishchilarining mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari bo‘yicha to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini quyidagi shartlarga bir vaqtning o‘zida rioya qilinganda tadbirkorlarga qaytarib beriladi:

- har bir 5 sotix yer maydoni uchun oyiga kamida 1 nafar ishchining bandligini ta‘minlash;

- har bir ishchi uchun oyiga mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadni MHTEKMning 1 baravaridan kam bo‘lmagan (980 ming so‘m) miqdorda belgilash;

- issiqxonaga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan issiqxona faoliyati bo‘yicha olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etishi.

PQ-192-son 14.06.2023

Issiqxona maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlar xodimlari uchun to‘langan JShODSni qaytarib olishi uchun:

1. my3.soliq.uz portalida shaxsiy kabinetdan **“Xizmatlar”** menyusidan **“Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish”** sahifasiga o‘tiladi;

The screenshot shows the 'Elektron soliқ xizmatlari' portal interface. The user is logged in as 'MARD STR 3' with a 'Koli-markaz' account. The main navigation bar includes 'Shaxsiy kabinet aktivlashtirilmagan' and 'Aktivlashtiring, bunga bir necha daqiqa sarflanadi'. The 'Xizmatlar' section is highlighted, showing a list of services for legal entities. The service 'Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish' is highlighted with a red box.

Elektron soliқ xizmatlari
Yuridik shaxsning shaxsiy kabinet

1196 Koli-markaz

MARD STR 3 FX

Q'zbekcha

Shaxsiy kabinet aktivlashtirilmagan Aktivlashtiring, bunga bir necha daqiqa sarflanadi

Asosiy Soliqlarni to‘lash **Xizmatlar** Solishtirma dalolatnomalar

Yuridik shaxslar uchun xizmatlar

Asosiy - Soliqlar va hisobotlar - Yuridik shaxslar uchun xizmatlar

Barcha xizmatlar Избранные

Xizmatlar bo‘yicha qidirish

- Normativ-huquqiy xujjatlarda soliқ ma‘murchiligi doirasida ko‘zda tutilgan xabarnomalarni yuridik shaxslar tomonidan soliқ organlariga yuborish
- Yuridik shaxslarning onlayn nazorat kassa texnikasi ma‘lumotlari
- Aylanmadan olinadigan soliқ to‘lovchi yuridik shaxslar uchun qat‘iy belgilangan summadagi soliқ rejimiga o‘tish
- Yuridik shaxslar uchun QQS summasiga tuzatish kiritish
- Yuridik shaxslarning soliқ imtiyozlaridan foydalanish bo‘yicha murojaat
- Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish**

2. Ushbu bo‘limdan “Issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun” bo‘limi tanlanadi;

Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish

Issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarni ishga olgan ish beruvchilar uchun

Paxta va yoki g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun

3. Ochilgan ariza shaklida arizachi to‘g‘risida ma’lumotlar (*tashkilot nomi, STIR, manzil*) avtomatik shakllanadi;

Issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun

Asosiy - Barcha xizmatlar - JSHODS summasini qaytarish - Issiqxonaga

Daromad solig‘i summasini qaytarish

Yuborilgan arizalar

Yordam

Xodimlar uchun to‘langan daromad soliq summasi Davlat byudjetidan to‘liq qaytarib berish to‘g‘risidagi ish beruvchining arizasi

Arizachi tugrisida ma’lumot

Tashkilot nomi:	<input type="text" value="MARD"/> <input type="text" value="FERMER XO‘JALIGI"/>
Tashkilot STIRi:	<input type="text" value="3"/> <input type="text" value="9"/>
Manzil:	<input type="text" value="Sirdaryo"/>
Faoliyat turi:	<input type="text"/>

4. Tegishli qatorlarga hisobot davri (*yil, oy*) kiritilgandan so‘ng xodimlar va yer maydoni haqidagi ma’lumotlar (*F.I.Sh, JShShIR va qaytariladigan JShODS summasi*) avtomatik shakllanadi;

Xodimlar ro‘yxatini shakllantirish

Yil: Oy: dan gacha

Mexnat faoliyatini amalga oshirayotgan (ishlab kelayotgan) xodimlar ro‘yxati (arizaga ilova)

T/r	F.I.Sh.	JShShIR/STIR	Umumiy qaytariladigan JShODS summasi
-----	---------	--------------	--------------------------------------

No data

Xodimlar uchun to‘langan daromad soliq summasi Davlat byudjetidan to‘liq qaytarib berish to‘g‘risidagi ish beruvchining arizasi

Issiqxonaga yer maydoni:	<input type="text" value="0 ar"/>
Qaytariladigan daromad soliq summasi:	<input type="text" value="UZS 0.00"/>

5. Arizada **bank rekvizitlari** (*bank nomi, MFO, hisobraqam*) ham avtomatik shakllanadi. “**Ariza shakllantirish**” tugmasi orqali jarayon yakunlanadi.

Ish beruvchining bank rekvizitlari

Bank nomi:

Bank MFOsi:

Bank hisob raqami:

Ariza shakllantirish

6. “**Yuborilgan arizalar**” bo‘limidan ariza raqami, sanasi, bajarish muddati, jarayoni, soliq organi va bajaruvchi haqidagi ma’lumotlarni bilib olish mumkin.

Daromad solig‘i summasini qaytarish **Yuborilgan arizalar** Yordam

Ariza, murojaat raqami.

No	Ariza raqami	Ariza sanasi	Ariza yo‘nalishi	Ariza summasi	Bajarish muddati	Bajarish jarayoni	Soliq xizmati organi	Bajaruvchining F.I.SH, xizmati va telefoni	Hujjatlar
No data									

Talablarga javob bermagan fermerlar uchun ariza yuborish tizim tomonidan avtomatik cheklanadi.

Yuborilgan arizalar bo‘yicha JShODS summasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda qaytariladi.

Soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish departamenti